

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimatov	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
B.S.Sobirov	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achildiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik.....	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish	544



UO'K: 7.012+37.03.

**OLIV TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI****ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ****THE IMPORTANCE OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF
FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM****Madaminov Nodirjon Mamirjonovich** 

Farg'ona davlat universiteti Tasviriy san'at kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim tizimini isloh qilish, zamonaviy yo'nalishlar ko'lamanı kengaytirish, kadrlar sifatini yaxshilashga qaratilgan fikrlar tahlili keltirib o'tilgan. Bu jarayonda o'quv fan dasturlarini mavzularni zamonaviy talabalarga ko'ra boyitish globallashtirish jarayonida sun'iy intellekt tushunchasining kiritib undan foydalanishda jarayondan qolib ketmaslik takliflarini bildirilgan.

Аннотация

В данной статье представлен анализ мнений, направленных на реформирование системы образования, расширение охвата современными направлениями, повышение качества кадров. В процессе обогащения учебной предметной программы предметами по современным учебным дисциплинам современные студенты предлагают не отставать от процесса внедрения понятия искусственного интеллекта и его использования в процессе глобализации.

Abstract

This article presents an analysis of opinions aimed at reforming the education system, expanding coverage of modern trends, and improving the quality of personnel. In the process of enriching the curriculum with subjects in modern academic disciplines, modern students suggest keeping up with the process of introducing the concept of artificial intelligence and its use in the process of globalization.

Kalit sozlar: tendensiya, refleks, integratsiya, kadr, ta'lim.**Ключевые слова:** тенденция, рефлекс, интеграция, персонал, образование.**Key words:** trend, reflex, integration, staff, education.**KIRISH**

Oliy ta'lim tizimida tasviriy san'at yo'nalishi talabalarini o'qitishning zamonaviy tendensiyalarga inetgrallashtirish zarurati, oliy ta'lim muassallarida kichik bo'shliqlar mavjud ekanligini ko'rasatmoqda. Ta'lim tizimidagi islohotlar bilan bir qatorda xususiy sektorni faolashgani bu bo'shliqni mavjud ekanligini bizga yaqqol ko'rsatib turibti. Bu bo'shliqlarning mavjudligi shundaki sifatli ta'lim, iqtidorli talabalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, o'z o'mida yangi ilmiy izlanishlarda g'oyalar banki ro'yxatini kengaytiradi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari yoki mutaxassis yo'nalishi kadrlarini kasbiy, badiiy grafik ko'nikmalarini rivojlanirib olishlari va uni o'z faoliyatlarida qo'llashlarida AKT ni cho'qur o'zlashtirish bilan amalga oshiriladi. Davlat rahbarining axborot texnologiyalarini rivojlanitirish maqsadida farmon va qarorlarida ko'zda tutilgan rejasining e'tiborli jihati ham uning ijrosini to'liq ta'minlash bilan qo'llab quvvatlanadi. Xususiy sektorlarda zamonaviy ta'lim tarkibining asosiy o'zagini yangi texnologiyalar bilan boyitilgan kompyuter qurilmalari, zamonaviy algoritmik qurilmalar va albatta dars mashg'ulotlarini olib boruvchi kadrlar tashkil qilgani yoshlarni xususiy sektorga bo'lgan e'tiborini tortmoqda. Inson tafakkurining o'zgarmas qonuniyatlaridan biri bu yangiliklarga intilib yashashida bo'lib, talabalarni zamonvaiy texnologiyalardan foydalanib ijod qilish reflekslari ularning ijodiy faoliyatida ko'rinib turibti. Dars mashg'ulotlarini o'quv bo'limi tomonidan ta'lim standartlari, norma va qoidalariga ko'ra tashkil etilishi ham o'ziga xos yondoshish kerakligia zarurati bor. Bu o'rinda Ovrupa oliygohlarida

dars mashg'ulotlarining tashkillanishi ham yangi prinsplar asosida yo'lga qo'yilganligi e'tiborlidir. Misol keltirib o'tadigan bo'lsak Buyuk Britaniyaning **De Montfort University** oliygohi 100 ta turli dasturlar asosida bakalavriyat mutaxassis kadrlarini yetishtirib beradi. O'zining ixchamlashtirilgan va mustaqil, amaliy-ijodiy mashg'ulotlar bilan boyitilgan dasturlarda talabalar mashg'ulotlarni o'zlashtirishda doimiy qiziqish kayfiyatini bir xilda saqlaydigan psixologik qarashlar bilan fan dasturlari tuzib chiqilgan. Ta'lim tizimiga joriy etilgan kredit modul tizimini tarkibiy talablaridan biri talabani professor-o'qituvchini tanlovi asosida dars mashg'ulotiga qo'yilishi ham bugungi kunda qator ta'lim muassalari orasida sog'lom raqobatni vujudga keltirib sifatli kadrlar qamrovini kengayishiga sabab bo'ladi. Hozirda mavjud bo'lgan va bu yo'nalishlarning tashkil topganidan beri isloh etilmagan yo'nalishlarni isloh qilish bilan zamonaviy darajaga ko'tarish kerak. Oliy ta'lim tizimida akademik mustaqillikning berilishi ham, har bir oliy ta'lim muassasi mavjud o'quv jarayoni arxitekturasini isloh etib, zamonaviy, sifatli ta'lim dargohiga o'zgartirishi mumkin bo'lgan imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **PF-5847**-son farmonida oliy ta'lim muassalarining xalqaro e'tirof etilgan oliy ta'lim muassalari qatoriga kiritish masalasi aniq vazifa sifatida yuklatilgan. Farmon ijrosi bosqichma-bosqich oliy ta'lim muassalarida amalga oshirib borilmoqda. Jumladan professor-o'qituvchilarini pedagogik qarashlarini rivojlantirish asosiy me'zonga aylanganini ilmiy faoliyatiga bo'lan talabning zaruratidan ko'rish mumkin. Ko'plab farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida mutaxassis kadrlar izlanish va islohotlarni amalga oshirib bormoqda.

M.B.Guzairov, M.M.Gayanova, V.A.Kozerevalarining "Сравнительный анализ образовательных программ в области информатики в университетах США и России" nomli maqolasida quydagicha tahliliy solishtirib o'tgan.

AQSh da oliy ta'lim tizimini boshqaruv vakolati davlat boshqaruvida emas balki shtatlarning o'ziga mustaqil tarzda berilgan. Oliy ta'lim tizimini boshqaruvida yagona davlat tizimini hech qanday bog'liqlik yo'q. Ta'lim tizimini nazorat qilish shtatlarning o'ziga yuklatilgan. Shuning uchun ham avtonom va mustaqil tarzda ta'lim sifati yuqori darajada. Ta'lim sifatini kafolatlash uchun akredetatsiya faoliyat olib boradi.

M.Urazova o'zining "Бўлажак касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш" ilmiy ishi doirasida quydagicha tahlil va o'rganishlar olib borganligi ham fikrimiz isboti sifatida ko'riladi.

Pedagogik kadrlarning yuksak professionalizmi ko'p jihatdan oliy ta'lim muassasalarida shakllantirilgan salohiyat, uning ta'limiy ehtiylarini qondirish va kasbiy tayergarlik darajasiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan «butun ta'lim tizimimizni tubdan qayta ko'rib chiqish, professional bilimlarni egallash uchun imkoniyatlarni kengaytirish, yangi sharoitlarda, yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlashga qodir mutaxassislarni tayirlashga yo'nalganlikni kuchaytirish» 2 zarurati yuzaga keldi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim tizimini aniq, ilmiy asoslangan, alohida texnologik loyihalardan tuziladigan, algoritmik, ma'lum natijani kafolatlaydigan, qo'yilgan maqsadlarga diagnostik yo'naltirilgan ta'limiy jaraenlar bilan takomillashtirishni texnologiyalashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan «kasb ta'lim tizimi uchun oliy malakali ilmiy-pedagog kadrlarni hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar sohasida ilmiy kadrlarni ustuvor ravishda tayirlash» 3 muammosi o'z yechimini kutmoqda.

Pedagogik loyihalashtirish va bo'lajak pedagoglarni loyihalash faoliyatiga tayirlash texnologiyalarini takomillashtirishga oid tadqiqotlar Princeton university (AQSh), Association for Educational Communications and Technology – AECT (AQSh), Belfield pedagogical university (Germaniya), National Advice on pedagogical technology (Angliya), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university (Angliya); Ta'lim Akademiyasi (Rossiya), Pedagogik texnologiyalar har xil (Rossiya), "Ta'lim texnologiyalari navigatori" Axborot-metodik markazi (Rossiya) kabi tan olingan ilmiy markaz va oliy ta'lim muassasalarida olib borilmoqda.

D.O.Ximmataliyevning "Касбий фаолиятга тайёргарликни диагностика қилишда педагогик ва техник билимлар интеграцияси" ilmiy ishida ko'zda tutilgan maqsada va strtegik munosabatda ham ta'lim sifatini va qamrovinni kengaytirish masalalari yoritilgan.

Jahon miqèsida zamonaviy ta'lim muhiti ulkan makrotizimdan iborat bo'lib, o'zining miqdoriy va sifatiy holatlari bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi virtual va real pedagogik tizimlar integratsiyasini aks ettiradi. Xususan, Yevropa ittifoqi va YuNYeSKO tashkilotlari tomonidan qabul qilingan Sarbon

PEDAGOGIKA

deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration) hamda kasbiy malakalar to'g'risidagi Lissabon Konvensiyasi (Convention on the Recognition of Qualification concerning Higher Education in the European Region) oliy ta'limda integratsion jaraenlarning jadal rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Mutaxassisliklarning malaka talablari va ta'lim integratsiyasi qamrov doiralarini kengaytirish maqsadida universal ta'lim konsepsiyalariga asoslangan fundamental pedagogik-kasbiy megatuzilmalar yaratish va ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarining shakllanganlik darajalarini tadqiq etish dolzarbligicha qolmoqda. Xalqaro tajribalarga ko'ra tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlar bilan ishlab chiqarish tuzilmalarining uzviy aloqadorligini chuqurlashtirish ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kasb ta'limi nazariyasi va amaliyoti tendensiyasini yanada rivojlantirishda innovatsion kasbiy salohiyat elementlarining uyg'unligi va uzviyligini ta'minlash asosida ta'limning integrativ tashkiliy funksiyasini yanada kengaytirish, ta'lim shakllari va metodlarini modernizatsiyalash, shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarni shakllantirish kabi integratsion jaraenlar muhim o'rin tutadi. Bu esa pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayirlash natijalarini pedagogik diagnostik usullar bilan tekshirish va aniqlangan muammolar bo'yicha tegishli metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va ta'lim integratsiyasining didaktik imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo etmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA

Olib borilayotgan ilmiy ishlar va ta'lim sifatini yaxshilash maqsadidagi kenga ko'lamli islohotlar fikrimizni isbotini ko'rsatib turibti. Yuqoridagi o'rganishlar natijasini amada tadbiiq etish, uning ijrosini ta'minlash zamonaviy bilimlarga ega mutaxassislar hamda texnologik jarayolarda faol kadrlarni etishtirish, pedagogika nuqtai nazari bilan ko'nikmalarni hosil qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Oliy ta'lim tizimida zamonaviy o'quv dasturlarni ishlab chiqib joriy qilish, Dasturlarni zamon talabidan kelib chiqib yo'lga qo'yish, bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarni shakllantirish bosqichlarini klassifikatsiyalash asosida nazariy, amaliy, ilmiy-tadqiqot tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha mobillik, reflektivlik, integrativlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmi takomillashtirish kerak. Kompetensiyaviy talablarning parametrlari va sifat ko'rsatkichlari majmui bo'yicha pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasini chuqurlashtirish hamda o'quv-uslubiy ta'minotini optimallashtirish asosida umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi takomillashtirishni amalga oshirish muhimdir.

XULOSA

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy yondoshuv asosida AKT dan foydalanish imkoniyatlarni va sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'quv fan dasturlaridagi mavzularni integrallashtirish bevosita ta'lim sifatini oshirishda asosiy e'tibor qaratiladigan jihatlardan biri. Xulosa qilib aytganda ta'lim tizimini jamiyatning talabiga ko'ra turli sohalarda xizmat ko'rsatishlarida xaridorgir kadrlar tayyorlashni ta'minlash zarurdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Химматалиев Д.О. Касбий фаолиятга тайёргарликни диагностика қилишда педагогик ва техник билимлар интеграцияси: Пед.фанл.бўйича докт. (ДСс) дисс. автореф. – Т.: 2018. – 70 б.13.00.05 – Касб-хунар таълими назарияси ва методикаси.
2. Уразова М.Б. Булажак касбий таълим педагогини лойихалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш. Пед. фан. док. дисс. автореф. - Т.: 2015. 21 б
3. Mampirjonovich, M. N. (2023). SCIENTIFIC THEORETICAL BASIS OF IMPROVING COMPUTER GRAPHICS COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 2(12), 106-109.
4. Mampirjonovich, M. N. (2023). Technology for Improving Computer Graphics Competencies of Future Teachers. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 307-309.
5. Soxibov, R. (2023). COMPOSITION AND ITS APPLICATION IN PAINTING. *Science and innovation*, 2(C5), 108-113.